

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA BARQAROR BIRIKMALARNI O'RGANISHGA BO'LGAN YONDASHUVLAR

Babanazarova Sahiba Abdusharipovna

*Doctoral student of Khorezm Ma'mun Academy, Doctor of Philosophy in Philology
(PhD), sohiba170289@mail.ru Tashkent, Uzbekistan*

Annotation: *Ushbu maqolada barqaror birikmalarning o'ziga xos xususiyatlari, tarkibiga kirivchi birliklarga ta'rif beriladi. Bugungi kungacha tilshunoslikda barqaror birikmalarni o'rganishga turlicha yondashuvlar paydo bo'lgan. Quyida ularning ba'zilariga to'xtalamiz, tilshunos olimlarning bu boradagi fikrlarini tahlil qilamiz. Fikrlarimizni misollar bilan dalillaymiz.*

Key words: *barqaror birikmalar, maqol, matal, iboralar, frazeologiya, turg'un o'xshatishlar.*

Nutqimizga tayyor holatda olib kirilgan, so'zlovchi foydalanishidan avval biror xalqning leksikonida, ya'ni lug'at boyligida mavjud bo'lgan, ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro turg'un birikuvidan tashkil topgan turg'un birikmalarga barqaror birikmalar deyiladi. Barqaror birikmalardan o'rinli foydalanish nutqqa estetik go'zallik bag'ishlaydi. Shu bois ham tilimizda barqaror birikmalar o'z o'rniga ega. Barqaror birikmalar ma'no butunligi nuqtayi nazaridan tasviriy ifodalar, frazeologizmlar, maqol va matallar, aforizmlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga nutqimizda barqarorlashib qolgan turg'un o'xshatishlarni ham biz ushbu qatorga kiritishni ma'qul topdik. Chunki turg'un o'xshatishlar ham uzoq yillar davomida xalqimiz leksikonida mavjud bo'lib, keng foydalanib kelinishi natijasida ajralmas holga kelgan va huddi frazeologizmlar kabi tayyor holda nutqqa olib kiriladi. Ushbu birliklar yillar davomida tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham, adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ham turli jihatdan keng o'rganilib kelingan. Ularning leksik-semantik, morfologik, pragmatik, uslubiy-poetik, sintaktik, lingvopoetik jihatlari o'rganilgan. Iboralar voqelikni obrazli tasvirlab, xalqlarning hayot tarzi, badiiy ijodiyoti, san'ati, urf-odatlar bilan bog'langanligi bois yillar davomida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilishiga turtki bo'lgan. Hatto dunyo tilshunosligida iboralarni o'rganishning turli tendensiyalari, har xil yondashuvlar paydo bo'lgan.

O'zbek tilshunosligida B.Yo'ldoshev, A.Mamatov kabi tilshunoslar iboralarning funksional-uslubiy xususiyatlarini o'rganganlar. Y.D.Pinxasovning fikricha, frazeologiya dastlab adabiyotshunoslik predmeti sifatida o'rganilgan. Ma'lum badiiy asarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilganda, barqaror so'zlar bog'lanmasini aynan tarjima qilish mumkin bo'lmay qolgan. Bunda o'sha tillarda mavjud bo'lgan frazeologik birliklar o'rganila boshlangan. Dunyo filologiyasida frazeologiya atamasi Neandr

tomonidan qo'llanilgan bo'lib, u badiiy asarlarni tarjima qilganda shu atamani ishlatgan⁸³.

Iboralar haqida fikr yuritganda aytib o'tish lozimki, barqaror birikmalar sirasiga kiruvchi frazeologizmlar adabiyotlarda iboralar, frazeologik birlik, frazema, barqaror birikma, turg'un birikma nomlari bilan ataladi. Tilshunos olim Shavkat Rahmatullayev esa unga "tuzma segment birlik" sifatida qaraydi. Frazemaga ta'rif berganda shuni unutmash joizki, u til xotirasidagi ramzga ishora qiladi. So'zlovchi ikki va undan ortiq so'zlarning semantik-sintaktik birlashuvi orqali tinglovchiga ma'lum bir tushunchani ishora qiladi. Natijada ifoda va mazmun jihatining butunligidan iborat bo'lgan frazema inson til xotirasidagi birgina so'zga yoki tushunchaga teng keladi⁸⁴.

Turg'un birliklar qatoriga kiruvchi maqol, matallar ham o'ziga xos o'rganilish tarixiga ega. Mahmud Koshg'ariy to'plagan maqollar juda qadimdan turkiy tillarda mavjud bo'lgan va ular turli urug' va qabila vakillaridan yozib olingan. Eng qadimgi turkiy xalqlarning til xususiyatlarini o'rganishda bu materiallar katta ahamiyat kasb etadi. Maqollar hozirgi o'zbek adabiy tilining rivojlanishida, til va meyorlarning o'sishida alohida rol o'ynaydi. Jahondagi ko'plab tillarda yaratilgan maqollarning asosiy qismini somatik komponentli maqollar tashkil qiladi. Somatik komponentli maqollarning tarkibidagi somatizmlar, ya'ni tana a'zolari nomlarini bildiruvchi so'zlar qatnashgan birliklardir. Somatik frazeologiyada har bir xalqning ko'p asrlik tajribasi, turmush tarzi, madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlar va an'analari o'z aksini topgan bo'ladi. Somatik frazeologizmlarning ilk tadqiqotchilaridan biri F.Bakk sanaladi. U butun dunyodagi frazeologizmlarni uch guruhga: faqat odamlarni tasvirlaydigan, odamlar va hayvonlarni tasvirlaydigan iboralarga ajratdi⁸⁵.

Turg'un o'xshatishlarni esa ilk bor ilmiy planda o'rganilishi Yevropa tadqiqotchilarining ishlariga borib taqaladi. Yevropada o'xshatishlarni lingvistik maqomda o'rganish XX asrning birinchi yarmidan boshlandi. O'xshatishlarni o'rganishning inglizcha an'anasi lug'atlarni tuzish bilan ajralib turishini ham ta'kidlash lozim. Tilshunos Grenville Kleiser "Similes and their use" ("O'xshatishlar va ularning qo'llanilishi") kitobida she'riyat va nasrdagi o'xshatish mazmunli matnlarni jamlaydi⁸⁶. Unda o'xshatishlar quyidagi 4 guruhga bo'lingan holda berilgan: nasrdagi o'xshatishlar, turli-tuman o'xshatishlar, she'riy o'xshatishlar va Injildagi o'xshatishlar. Ushbu kitobni tuzishda ko'plab taniqli yozuvchilarning asarlaridan namunalar olingan bo'lib, muallif o'xshatishlarni mos nutqiy vaziyatlarda qo'llashning bir qator muhim xususiyatlarini keltirish bilan birga, erkin o'xshatishlar yaratish bo'yicha zaruriy tavsiyalar beradi: "Ushbu to'plam sizga nafaqat o'xshatishlarni qachon va qanday ishlatish haqida ma'lumot beradi, balki ingliz tilining bebaho xazinasidan tanlangan

⁸³ Rashidova U.M. O'zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili: Filol. fan. b'uyicha fal. d-ri (PhD) diss... - Samarqand, 2018. - B. 13.

⁸⁴ Qahhorova Sh.A. O'zbek tilida barqaror birikmalar va ularning ahamiyati // Международный научный журнал, «Новости образования: исследование в XXI веке» №3(100), часть 1 октябрь, 2022 г.

⁸⁵ Akabaraliyeva X.Sh. "Devonu lug'atit turk" asaridagi somatizm komponentli maqollarning lingvomadaniy xususiyati // Scientific Journal Impact Factor // VOLUME 1 | ISSUE 9 ISSN 2181-1784 SJIF 2021: 5.423

⁸⁶ Kleiser G. Similes and their use. - New York: Funk and Wagnalis Company, 1925. - 381 pp.

klassik va zamonaviy o'xshatishlarning eng yaxshi to'plamidir"⁸⁷. G.Kleiser, asosan, o'xshatishlarning stilistik vosita sifatida matnda turli uslubiy (tasviriy, baho beruvchi, satirik effekt yaratish kabi) vazifalarni bajarishiga e'tibor qaratadi.

Keyinchalik ingliz tilshunoslaridan F.J.Vilstach⁸⁸, A.Ortoni⁸⁹, G.A. Miller⁹⁰ va E.Sommer⁹¹lar o'xshatishlarning lug'atlarini yaratib, tadqiqotlar olib borganlar.

Rus tilshunosligida turg'un o'xshatishlar ancha keng o'rganilgan bo'lib, uzoq yillar davomida ko'plab tilshunoslarning diqqat markazida bo'lib kelgan⁹². Chunki, o'xshatishlar xalqning o'ziga xos ko'rish va idrok yo'sini, obrazli tafakkur va taxayyul intizomini ham aks ettiradi⁹³.

REFERENCES:

1. Akabaraliyeva X.Sh. "Devonu lug'atit turk" asaridagi somatizm komponentli maqollarning lingvomadaniy xususiyati// Scientific Journal Impact Factor// VOLUME 1 | ISSUE 9 ISSN 2181-1784 SJIF 2021: 5.423. B. 335-339.
2. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 3. – Б. 21.
3. Rashidova U.M.O'zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс... – Samarqand, 2018. – Б. 13.
4. Qahhorova Sh.A. O'zbek tilida barqaror birikmalar va ularning ahamiyati// Международный научный журнал, «Новости образования: исследование в XXI веке» No3(100), часть1 октябрь, 2022 г. B. 392-393.
5. Wilstach F.J. A Dictionary of Similes. – Boston: Little, brown, and company, 1916. – 488 pp.
6. Кирсанова Н.Н. Сравнение как основа номинации в современном немецком языке: Дисс. ...канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 1996. – С. 174.
7. Лебедова Л.А. Устойчивые сравнение русского языка. Краткий тематический словарь. – Краснодар: Рубанский ГУ, 2003. – С. 300.
8. Бойко Л.Г. Культурно маркированное содержание устойчивых сравнений русского языка: Дисс. ...канд. филол. наук. – Волгоград, 2000. -218 с.

⁸⁷ Kleiser G. Ko'rsatilgan manba. –P. 3-6.

⁸⁸ Wilstach F.J. A Dictionary of Similes. – Boston: Little, brown, and company, 1916. – 488 pp.

⁸⁹ Ortony A. The Role of Similarity in Similes and Metaphors // Metaphor and Thought. – London: Cambridge University Press, 1988. – 186-202 pp.

⁹⁰ Miller G.A. Images and Models, Similes and Metaphors // Metaphor and Thought. – London: Cambridge University Press, 1988. – 202-254 pp.

⁹¹ Sommer E. Similes Dictionary. – Michigan: Visible ink press, 2013. – 641 pp.

⁹² Масалан, қаранг:Бартон В.И. Сравнение как средства познания. – Минск: Изд-во БГУ, 1978. – 127 с.; Бойко Л.Г. Культурно маркированное содержание устойчивых сравнений русского языка: Дисс. ...канд. филол. наук. – Волгоград, 2000. -218 с.; Будагов Р.А. Метафора и сравнение в контексте художественного целого// Человек и его язык. –Москва, 1974. – № 1. – С. 26-31.; Вежицкая А. Сравнение – градация – метафора // Теория метафоры. –Москва, Прогресс. 1990. 133-153.; Долгова А. Лексикографирование устойчивых сравнений (к проекту составления словаря русских устойчивых сравнений с английскими и немецкими эквивалентами) /www.gumf.bsu.by/hum/docs/dolgovalex.doc.; Карцевский С.О. Сравнение // Вопросы языкознания. – Новосибирск, 1976. – № 1. – С. 107-112.; Кирсанова Н.Н. Сравнение как основа номинации в современном немецком языке: Дисс. ...канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 1996. – С. 174.; Лебедова Л.А. Устойчивые сравнение русского языка. Краткий тематический словарь. – Краснодар: Рубанский ГУ, 2003. – С. 300.;

⁹³Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 3. – Б. 21.